

**KON METALLURGIYA KOMBINATI ISHCHILARINING
KASALLANISHLARI, MEHNAT VA ISH SHAROITI HAMDA ULARNING
GIGIYENIK JIHATLARI (NKMK MISOLIDA)**

Kasimova Dilfuza Abrarovna

dilfuza.kasimova.2015@mail.ru

Toshkent davlat tibbiyot universiteti,

Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi dotsent,i

Abdurahimov Bobirjon Abdunabi o'g'li

bobirjonabdurahimov@mail.ru

Toshkent davlat tibbiyot universiteti,

Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi dotsenti

Yarashev Zarif Zafar o'g'li

zarifjonyarashov3@gmail.com

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Tibbiy
sug'urta ishi fakulteti 1-bosqich magistr talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy kon metallurgiya kombinati ishchilarining salomatligini, xavf omillarini chuqur o'rganish va ularni yaxshilash, xavf omillarini oldini olish bo'yicha tizimli kompleks yondoshish, gigiyenik baholash va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Kalit so'zlar: Kon-metallurgiya sanoati, Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK), Ish sharoitlari, Zararli va xavfli omillar, Mehnat rejimi va dam olish

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы углублённого изучения состояния здоровья работников Навоийского горно-металлургического комбината, анализа факторов профессионального риска, их улучшения и профилактики. Особое внимание уделено системному комплексному подходу к предупреждению вредных и опасных факторов, гигиенической оценке условий труда и разработке профилактических мероприятий.

Ключевые слова: горно-металлургическая промышленность, Навоийский горно-металлургический комбинат (НГМК), условия труда, вредные и опасные факторы, режим труда и отдыха.

Kirish. “NKMK” AJ Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish sohasidagi eng yirik xalqaro tashabbusi – Global kelishuviga qo'shildi. BMT ning Global kelishuvi inson huquqlari, mehnat munosabatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha universal tamoyillarga amal qiladigan kompaniyalarni birlashtiradi. Kombinat BMT ning Global kelishuviga qo'shilganligi

kompaniyaning o'z faoliyatiga mazkur kelishuvning 10 ta tamoyiliga rioya qilishi, korporativ boshqaruvni takomillashtirishi, shaffoflikni oshirishi va BMT ning Barqaror rivojlanish maqsadlarini integratsiya qilishga intilishini aks ettiradi. "NKMK" AJ transformatsiyasi doirasida 2023-2024-yillarda asosiy konlar va GMZlarning operatsion samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi tarixida birinchi marta NKMK yetakchi xalqaro banklardan 5 yillik muddatga kafolatlanmagan uzoq muddatli sindikatlashtirilgan kredit jalb qildi. Bitimning umumiy qiymati 1,2 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) ishchilarining mehnat sharoitlari, zararli va xavfli ishlab chiqarish omillari hamda ularning sog'liq holatiga ta'sirini kompleks baholashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida jamoat sog'lig'ini saqlash, ishlab chiqarish gigiyenasi va epidemiologiya fanlarining zamonaviy yondashuvlari asos qilib olindi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Xususan, yirik sanoat korxonasida atmosfera havosini, suv-er resurslarini asrash, chiqindilarni boshqarish va bioxilma-xillikni muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani tahsinga sazovor ishdir. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan talab va qoidalar buzilishlarini aniqlash, oldini olish, ularni bartaraf qilishda yanada samarali natijalarga erishishga qaratilgan davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim sanaladi. Bu borada yaxlit bir tizim shakllangan bo'lib, unda atrof-muhitning hozirgi holati, mavjud global tahdidlar va mintaqaviy ekologik muammolarga oqilona yechim topishda yangicha yondashuv talab etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun Barqaror rivojlanish maqsadlarini samarali amalga oshirishda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va atrof-muhit muhofazasi omillari muhim o'rin tutishi belgilab berilgan edi. Bugun kombinat tizimida atmosfera havosi monitoringi yo'lga qo'yilganligi o'zining ijobiy samarasini berayapti. Bu, atmosfera havosining sifatiga, miqdoriy tarkibiga inson faoliyati ta'sirida doimiy va harakatlanuvchi manbalardan chiqadigan tashlanmalarni kuzatish tizimi yaratilganligiga dalolatdir.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, NKMK ishchilarining aksariyat qismi zararli va xavfli ishlab chiqarish omillari ta'siri ostida faoliyat olib boradi. Ayniqsa, chang va shovqin darajasi yuqori bo'lgan sexlarda ishlovchi ishchilar orasida nafas olish tizimi, yurak-qon tomir va tayanch-harakat apparati kasalliklari keng tarqalganligi aniqlandi.

Bugun kombinat tizimida atmosfera havosi monitoringi yo'lga qo'yilganligi o'zining ijobiy samarasini berayapti. Bu, atmosfera havosining sifatiga, miqdoriy tarkibiga inson faoliyati ta'sirida doimiy va harakatlanuvchi manbalardan chiqadigan tashlanmalarni kuzatish tizimi yaratilganligiga dalolatdir. Shu yilning o'tgan davrida atmosfera havosini ifloslantiruvchi 62 ta manbadan 2068 ta namuna olinib, 11 ming 466 ta tahlillar o'tkazildi. Tahlillar natijalariga ko'ra, atrof-muhitga tashlanadigan tashlanmalar konsentratsiyasi belgilangan normalardan oshishining oldi olinib, doimiy nazorat qilinmoqda. Bundan tashqari, suv resurslarini, tuproqlarni ifloslantiruvchi manbalarda yer osti suvlarining ifloslanishi bo'yicha muntazam monitoring olib borilmoqda. Tahlillar natijalari muntazam ravishda Davlat ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo'mitasiga taqdim etiladi. Natijada aniqlangan ifloslashgan hududlarga zudlik bilan chora-tadbirlar ko'rib, me'yorida ortiqcha ifloslanishlarning oldi olinmoqda. Kombinatsining barcha bo'linmalarida oqova suv tashlanayotgan 42 ta tashlamalarda monitoring olib borildi. Suv namunasi olinib, kimyoviy moddalar bo'yicha 10 mingdan ortiq tahlil o'tkazildi. Atrof-muhitga ta'sir xavfi yuqori bo'lgan korxonalarning atmosfera havosini ifloslantirish manbalaridan namunalar olish va tahlil qilish bo'yicha 2022-2026-yillarda bosqichma bosqich avtomatik stansiyalar o'rnatilishi rejalashtirilgan. Joriy yilning uchinchi choragida kombinat bo'linmalarida ikkita avtomatik stansiya o'rnatildi. Hozirda uskunalar olib kelingan va o'rnatilmoqda. Avtomatik stansiyalar atmosferaga chiqadigan zararli tashlamalarning konsentratsiyasini doimiy nazorat qilish va tezkorlik bilan chora-tadbirlar ko'rish imkonini oshiradi. Kombinatta mavjud 470 dan ortiq dizel va benzin yoqilg'isi bilan harakatlanadigan transport vositalaridan chiqadigan gazlar miqdori bosqichma-bosqich o'tkaziladigan "Toza-havo" tadbirlari davomida va kunlik nazorat orqali maxsus uskunalar yordamida o'lchanmoqda.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Navoiy kon-metallurgiya kombinati ishchilarining sog'lig'i ishlab chiqarish muhitidagi zararli va xavfli omillar bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Noqulay mehnat sharoitlari kasb kasalliklari bilan bir qatorda umumiy somatik kasalliklar rivojlanish xavfini ham oshiradi.

Ishchilar salomatligini muhofaza qilishda tibbiy sug'urta tizimini takomillashtirish, davriy tibbiy ko'riklar sifatini oshirish va ish joylarida gigiyenik talablarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilash, zararli omillar ta'sirini kamaytirish va profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Newspaper "Konchilar hayoti" №19 (781) 2024-yil 15-oktyabr.

2. **Dmitriyev, Artyom Nikolayevich.**Navoiy kon-metallurgiya kombinati sanoat majmuasining hududiy joylashuvi sharoitida o'lat epidemiologiyasi va epizootologiyasining dolzarb jihatlari: tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati: 14.00.30 / A.N. Dmitriyev. — Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. — Toshkent, 2025.
3. **Goryayev D.V.**Krasnoyarsk o'lkasi metallurgiya sanoati xodimlari salomatligi buzilishlarining oldini olish / D.V. Goryayev, R.V. Federeyev // Mehnat tibbiyoti va sanoat ekologiyasi. — 2017.
4. **Danilova Yu.V.**Metallurgiya ishlab chiqarishi ishchilarida ustuvor oziqlanish (nutriyent) xavflari / Yu.V. Danilova, D.V. Turchaninov, E.A. Vilms // Mehnat tibbiyoti va sanoat ekologiyasi. — 2017.
5. **Kleyn S.V.**Tog'-boyitish kombinati chiqindilari saqlanadigan hudud ta'sir zonasida yashovchi aholi salomatligi uchun kanserogen xavfni gigiyenik baholash / S.V. Kleyn, S.A. Vekovshinina va boshq. // Gigiyena va sanitariya. — 2018.
6. **Rumyantseva O.I.**Rangli metallurgiya xodimlarida ishlab chiqarish bilan bog'liq bronxial astmaning dolzarb jihatlari / O.I. Rumyantseva, N.S. Sorkina, S.G. Komarova // Mehnat tibbiyoti va sanoat ekologiyasi. — 2017.
7. **Syurin S.A.**Kola Qutbiy hududidagi tog'-metallurgiya sanoati xodimlarida bronxo-o'pka patologiyalari / S.A. Syurin, I.I. Rocheva // Mehnat tibbiyoti va sanoat ekologiyasi. — 2017.